

BOLALARNI NUTQINI O‘STIRISHDA HIKOYA JANRIDAN FOYDALANISH

Maziyayeva Muqaddasxon
FarDU Magistri

Yuldasheva Dilafroz
filologiya fanlari nomzodi dotsent

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bolalar nutqini o‘stirishda hikoya janirida foydalanishda ahamiyati yoritib berilgan. Tarbiyachi hikoya janiridan foydalanish masalalariga ijobiy yondashgan.

Kalit so‘zlar: Nutq, hikoya, janr.

Badiiy adabiyotning asosiy ish quroli so‘zdir. O‘zi ko‘zga ham ko‘rinmaydigan so‘z yordamida nafaqat atrofdagi narasa- hodisalar, balki boshdagi o‘ylar, ko‘ngildagi sezimlargacha ifodalash mumkin. Shuning uchun ham sa‘nat turlari orasida adabiyot muhim o‘rin tutadi. Kishilarning o‘y-hayollari, istagu armonlari badiiy adabiyotda to‘liq namoyon bo‘ladi.

Badiiy adabiyot, sa‘nat asarlari inson ruhiyati va tafakkuriga ijobiy ta‘sir etadi. Adabiyot atamasi keng va tor ma‘noda qo‘llaniladi. Uni tor ma‘noda badiiy adabiyotni anglatsa, keng ma‘noda esa inson tafakkurining mahsuli bo‘lmish ijtimoiy ahamiyatga ega har qanday yozma asarni o‘z ichiga oladi. Badiiy adabiyot tushunchasi olamni obrazli ko‘rish va timsollar asosida aks ettirish mahsulidir. Bunda asarlardan nimanidir o‘rganish, bilib olish uchun emas, balki kishilar qalbining tovlanishlarini tuyg‘ularining ranginligini his etish, uning quvonch iztiroblarini his etish uchun o‘qiladi va muhokama qilinadi. Shu bois kishilarning faqat aqliga emas, balki tuyg‘ulariga va ichki kechinmalariga ham ta‘sir etadi, kishilar hissiyotini boyitib, ruhiyatini sog‘lomlashtirishga xizmat qiladigan bitiklar badiiy adabiyot hisoblanadi va adabiyot atamasi asosan shu ma‘noda qo‘llaniladi.

Badiiy adabiyotni qachon faydo bo‘lanligini aniq aytish qiyin. Chunki ilmiy adabiyot atamasi yozma ma‘lumotlarni qamrab olsa, badiiy adabiyot tushunchasi xalq og‘zaki ijodini o‘z ichiga oladi. Xalq og‘zaki ijodining qanchon faydo bo‘lganini aniqlash deyarli mumkin emas. Har holda, odamzod faydo bo‘lishi bilan uning badiiy ijodi ham dunyoga kelgan bo‘lishi kerak. Birinchi she‘r Odam ato tomonidan aytilgani rivoyat qilinadi.1

Adabiyot ma'naviyat xazinasini sababi ishundaki, uning bag'rida hozirga qadar insoniyat ardoqlab kelayotgan eng noyob hislar- insonparvarlik, adolat, rahmshavqat, o'zaro hamjihatlik, do'stlik, mehr va muruvvat, sevgi- muhabbat, go'zalikka tashnalik singari o'lmas insoniy tuyg'ular jamu-jamdir. Adabiyotga oshno tutingan kishi qalbiga bu hislar ko'chib o'tishi, uni hazrati insonga aylantirishi hayotga nur olib kirib, turmushini turfa mazmun bilan boyitishi aniqdir. qolaversa, adabiyot so'zi aslida obod so'zidan olingan bo'lib, qadimdan sharq mamlakatlarida adabiyotga insonni odob va ahloqqa yo'naltiruvchi ruhiy- ma'naviy manba sifatida qaralgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqish va muhabbatni yanada rivojlantirish badiiy asardagi go'zallikni, nafosarni his etish ko'nikmasini kuchaytirib borish bugungi kunning muhim masalasidir. Kichik yoshidan bolalarni xalq og'zaki ijodining janri bo'lgan hikoyalar bilan tanishtirish orqali ularda asarga nisbatan qiziqishlarini oshirish orqali bolalarda so'z qudratini, obrazli fikrlarni his etib, ularda ifoda etilgan chuqur ma'nolarni tushunib boradilar. Hikoyalarga nisbatan hurmati yanada kuchaytiriladi va shu bilan birga sharqning buyuk allomalari, bugubgi kunda o'zbek adabiyotini rivojlanishiga hissa qo'shgan yozuvchi va shoirlar haqida hamda ularni asarlariga nisbatan hurmat hissi tarbiyalanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kichik yoshdagi bolalarni tarbiyachilar yoki ota-onalar tomonidan aytilgan hikoya yoki ertakni nihoyasiga etkazishga, jummalarni qisqa, lo'nda tuzishga, tasviriy vositalardan foydalanishga o'rgatib boriadi. Shu yo'llar bilan bolalarda shaxsiy tajribalari asosida tarbiyachi taklif etgan hayotiy mavzular bo'yicha mantiqiy rivojlanib boruvchi, hikoya va ertak tuzish qobiliyatlari rivojlantiriladi. Qahramonlarning ruhiy kechinmalarini ta'sirchan aytib bera olish ko'nikmasi rivojlantiriladi. Bolalar mazmunli rasmlar asosida ham hikoyalar tuzishni yaxshi ko'radilar. Rasmlarda aks ettirilgan voqealarni izchil bayon qilishni, qahramonlarning xatti-harakatiga nisbatan o'z munosabatini bildirish, hikoyani mantiqli tugatish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

Maktabgacha ta'limda hikoya janriga mansub kichik hajmda badiiy asarlarda kishilar hayotida yuz berishi mumkin bo'lgan ma'lum voqea-hodisalar hayotning muhim janrlari umumlashtirilib tasvirlanadi. Hikoyalarda, odatda, biror kishi hayotida bo'lgan bir epizod tasvir obyekti qilib olinadi. Hikoyalardagi mazmunning mohiyati ertakardagi mazmunga nisbatan hayotiy bo'ladi. Hikoya mazmunan ham, shaklan ham maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun mos janr hisoblanadi chunki maktabgacha yosh davridagi bolalarda yoshlari besh yoshdan o'tgandan so'ng ular mavhum narsalardan ko'ra real ya'ni aniq bo'lgan voqea-hodisalarga qiziqqa boshlaydilar.

Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarni qahromonlarning xatti-harakati, tashqi ko‘rinishi, portret tasviri, voqea-hodisalar haqidagi hikoyalar qiziqtiradi. Kichkintoylarni hikoya matni bilan tanishtirishning syujetini tushuntirishga bog‘lab olib borish samarali bo‘ladi. Tayyorlov guruh yoshiga yetgach hikoya ustida ishlashga bag‘ishlangan izohli o‘qish bosqichlarida o‘qilgan matni qayta hikoyalash kabi asosiy ish turlaridan foydanatilaniladi. Hikoya mazmuni odatda savol va topshiriqlar asosida tahlil qilinadi. Savol va topshiriqlardan hikoya mazmunini tahlil qilish; dalil mulohaza hamda xulosalarni taqoslaydi, voqea-hodisa va xatti-harakatlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlash, hamda umumlashtirish; kichkintoylarni mustaqil fikrlash va erkin faoliyatga; o‘z ma‘naviy kamoloti yo‘lida o‘zining ishtirokini ta‘minlash, kashf etish, lazzatlanish tuyg‘usi shaklanadi. Shu asosda badiiy asarlarni tinglashga qiziqtirish maqsadida foydalaniladi.

Darhaqiqat, bu ishlarning barchasi pedagoglar hamda ota-onalarning savol va topshiriqlari asosida amalga oshiriladi. Maktabga tayyorlov guruhi bolalariga o‘qilgan hikoya mazmuni yuzasidan beriladigan dastlabki savollar hikoya kichkintoylarga yoqqan –yoqmaganligini, undagi qaysi qahramonlarning xarakteri, kimga qanday nima ucin yoqqanligi haqida muhokama yuritib, salbiy va ijobiy, to‘g‘ri va noto‘g‘ri, halol va haromni farqlashni, unga qanday ta‘sir etganini aniqlash maqsadida beriladi. So‘ngra hikoya syujeti, voqealarning rivojini ochishga, qahramonlarning xarakterini tushunishga, asardagi yetakchi qarashlarni bilib olishga, ular haqida farqlashga, o‘z ma‘naviyatini sog‘lomlashuv jarayonida bevosita ishtirok etishga yo‘naltirilgan savol va topshiriqlardan foydalaniladi. Badiiy asarni tahlil qilayotgan vaqtda, asarni to‘liq tushunishga berilib ketib, qahramonlarga tavsif berish, hodisalarning sabablarini aniqlash, ijobiy va salbiy sifatlarni farqlash ishlarni e‘tibordan chiqarmaslik kerak

Hikoya janridagi bitiklar hayotiyliigi bilan o‘ziga xos xususiyatga ega. Unda voqealar tez rivojlanib boradi. Hikoyada inson shaxsi va hayoti bilan bog‘liq voqealar bayon etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar qahramonlarning xarakteri, ularga xos bo‘lgan xususiyatlar bilan qiziqadilar, ular haqida tengdoshlari bilan o‘zaro fikr almashadilar. Maktabgacha ta‘lim tashkilotining “Ilk qadanm” o‘quv dasturida taqdim etilgan hikoyalar mavzu jihatidan xilma–xildir. Odatda har qanday hikoyalar matni biror davr bilan bog‘liq bo‘ladi. Kichkintoylar hikoyadagi qahramonkarning ma‘naviyatiga, xarakteriga bo‘lgan qiziqishlari tufayli hayotning nurli va qorong‘u tomonlari xususida tushunchaga ega bo‘ladilar. Ularda go‘zallik va nafosatga muhabbat, yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg‘usi hikoyalar bilan tanishtirish va uni tahlil qilish vaqtida rivojlanib biradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yozilgan hikoyalar badiiy tur sifatida o‘ziga xos xususiyatga ega. Hikoyadagi har bir so‘z, gap va iboralar

o'xshatishlar yozuvchining fikrini ifodalshga xizmat qiladi. Hikoya matni uning mazmunini yoki badiiy xususiyatlarini o'rganibgina qolmay, balki tahlilning ifodali, badiiy shartli yoki ijobiy o'qish, muammoli usullardan foydalanish uchun ham manba bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirish talimiy faoliyatlarda yoki kunning ikkinchi qismida amalga oshiriladi, hikoyalarni o'qib berishda bolalar tushunmaydigan. so'z va iboralar ma'nosini tushuntirib berish ham muhim usullar bo'lib o'z samarasini beradi. Aks holda esa, bolalar hikoya mazmunini to'liq tushunmay qolishlari mumkin. Bu o'z navbatida, o'qilgan matni didaktik tahlili samaradorligiga ham putur yetkazishi mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarga hikoyalarni o'qib berish orqali ularni so'z boyliklarini oshirishga erishishladi. Tarbiyachi hikoyani o'qib bergach bolalardan uning mazmuni haqida o'ylashlari, tassurotlarini tiniqlashtirib oilshlari, o'z fikr-mulohazalarini aytishga tayyorlanib olishlari uchun ma'lum vaqt berish va tanishuv suhbatini o'tkazishi ijobiy natija beradi. Hikoyani o'rganishda savollar tarbiyachi tomonidan beriladi. Shu usul bilan birga asar mazmuni, asardagi qahramonlar shaxsinig xulq-atvorini ochish yuzasidan beriladigan savollar ham o'zini samarasini berishi mumkin. Bu usul bolalarda o'z fiktini izchil bayon etishga, mazmun va voqealar orasidagi bog'lanishni to'liq va uzoq muddat esda saqlab qolishiga yordam berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi . F.Yusupova
2. Bolalar nutqini o'stirish nazariyasi va metodikasi D.R.Babayeva
3. Nutq o'stirish uslubiyoti O.Shodiyeva.
4. Sog'lom farzand-oila quvonchi. M.Z.Rajabboyeva